O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

"TASDIQLAYMAN"
rektor Sh. Sirojiddinov

2024-yil 28.06

# UMUMIY SOTSIOLOGIYA

FANINING

## O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta'lim sohasi:** | 310000 – Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60310400 – Sotsiologiya |

Toshkent – 2024

| Fan/modul kodi UMS1116 | Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2024/2025 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Har bir semestrdagi fan/modulning nomi** | **Semestr** | **ECTS - Kreditlar** | **Haftalik dars soatlari** | **Auditoriya mashg'ulot lari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| **Umumiy sotsiologiya** | 1 | 4 | 4 | 60 | **60** | **120** |
| **Umumiy sotsiologiya** | 2 | 6 | 4 | 60 | **120** | **180** |
| **Umumiy sotsiologiya** | 3 | 6 | 6 | 90 | **90** | **180** |
| **Jami:** | | **16** | **14** | **210** | **270** | **480** |

I.

## I. Fanning mazmuni

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad – sotsiologiyaning jamiyat hayotidagi o'rni, funksiyalari, ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berish, zamonaviy ijtimoiy hayotning murakkab hodisa va jarayonlarini ilmiy tushunish, amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va metodlardan foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fanning vazifasi – sotsiologiya fani obyekti, predmeti, asosiy tushuncha va kategoriyalarini mohiyatini tushuntirish, zamonaviy sotsiologiyadagi asosiy maktab va yo'nalishlar bilan tanishtirish, sotsiologiya fanining asosiy qonun va tamoyillarini umumiy va xususiy jihatlarini ko'rsatib berish, amaliy sotsiologik tadqiqot metodlari va dasturi to'g'risida muayyan tassavur uyg'otish, sotsial struktura, sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillikning mohiyati va mazumunini ochib berish orqali talabalarga jamiyatda bo'layotgan sotsial jarayon, hodisalarni ilmiy tahlil etish zaruriyatini singdirishdir.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruzamashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Sotsiologiyaningfan sifatida vujudga kelishi va taraqqiyotini asosiy bosqichlari**

Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida. Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. Sotsiologiya vujudga kelishining tarixiy sharoitlari XIX asr boshlarida kapitalizm rivojlanishi.

XIX asr boshlaridagi G'arb jamiyatshunosligida rivojlanish g'oyasi. Qiyosiy tadqiqot usullarining shakllanishi. Empirik sotsial tadqiqotning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining obyektiv zaruriyati. Sotsiologiya shakllanishining ilk asosiy bosqichlari: pozitiv-naturalistik, psixologik. O. Kont va uning tarixiy



taraqqiyot, ijtimoiy turg'unlik va ijtimoiy o'zgaruvchanlik qonunlari haqidagii pozitivistik ta'limoti. E.Dyurkgeymning sotsiologik ta'limoti, sotsiologiyaning predmeti va strukturasi haqidagi g'oyalari. M.Vebеrning sotsiologik ta'limoti va metodologik g'oyalari. G.Zimmelning formal sotsiologiyasi.

**2-mavzu. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti**

O.Kont - pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. G'arb sotsiologiyasi klassiklari: M.Veber, E.Dyurgeym, G.Spenser, V.Pareto va boshqa mutafikkrlarning ishlarida sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammolarini yechishning o'ziga xosligi. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammosini yechish yo'lidagi turli yo'nalishlaridagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar. Sotsiologiyaning obyekti va predmetini ta'riflashdagi eng yangi tendensiyalar. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammosini kompleks tarzda yechishga urinishlar.

XX asrning birinchi choragidagi g'oyaviy-nazariy va ijtimoiy siyosiy reformizm, sotsiologiyada gumanistik tendensiyalarning kuchayishi. Neopozitivizm sotsiologiyasining (struktur funksionalizm, bixeviorizm, empirizm) shakllanishi. Sotsiologiyaning nazariy fundamental muammolariga qaytishi va falsafaga asoslanishi va hamda inson muammosi masalasiga qiziqishning oshishi. Ekzistensial, fenomenologik, realistik sotsiologiya sotsiologiya rivojlanishining yangi yo'nalishlari sifatida

**3-mavzu. Sotsiologiya strukturasi**

Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Sotsiologiya strukturasi elementlarining rivojlanish dinamikasi. Fundamental (asosiy) va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyligi va farqi. Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sotsiologik tahlili. Nazariy va empirik sotsiologiya.

Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlari tushunchalari. XX asrning birinchi choragida tarmoq sotsiologiyasini shakllanishi. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlarining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Sotsiologiyadagi muhim maxsus va tarmoq yo'nalishlari: sotsial institutlar, sotsial taraqqiyot, sotsial munosabatlar, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi, siyosiy sotsiologiya, madaniyat sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya, huquq sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi va boshqalar. R.Mertonning «O'rta darajadagi nazariya»si maxsus va tarmoq yo'nalishlarining bazisi sifatida. Maxsus va tarmoq yo'nalishlarini ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga muvofiq rivojlanish dinamikasi. Zamonaviy sotsiologiya maxsus va tarmoq yo'nalishlari istiqbollari.

Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. Empirik sotsiologiyaning bunyod bo'lishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta'siri. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya

**4-mavzu. Sotsiologiya fanlar tizimida**

Sotsiologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishiga boshqa fanlar ta'siri. Sotsiologiya va falsafa. Qadimgi Xitoy, Xindiston, Yunoniston va Markaziy Osiyo mutafakkirlari falsafiy ta'limotida jamiyat va uning muammolari haqidagi qarashlar. Sotsiologik muammolarni tahlil etishda falsafa fani qonun va kategoriyalarining ahamiyati. Falsafiy nazariyalarning takomillashtirishda aniq sotsiologik tadqiqotlarning o'rni. Sotsiologiya va tabiiy fanlar. «Bir omil pozitivistik-naturalistik maktablar» nazariyalarining sotsiologiya rivojiga ta'siri. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va aniq fanlar. Sotsiologik tadqiqotlar va metematika fani aloqadorligi. Sotsiologiya va statistika. Sotsiologiyaning fanlar tizimida umumdissiplinar fan sifatida tutgan o'ziga xos o'rni.

**5-mavzu. Asosiy sotsiologik tushunchalar**

Fanda ilmiy tushunchalarning ahamiyati. Sotsiologik tushunchalarni yaratish. Tushuncha nazariyaning asosiy tarkibiy elementi. Tabiiy fanlarning sotsiologiya fani tushunchalarini paydo yaratilishidagi ta'siri. Zamonaviy sotsiologiyaga matematika fani tushunchalarining kirib kelishi. XIX asrning oxiri va XIX boshida falsafiy tushunchalarning nazariy sotsiologiyaga ta'siri.

Asosiy sotsiologik kategoriyalar: sotsial voqelik, sotsial munosabat, sotsial harakat, sotsial institut, sotsial struktura va boshqalar. Sotsiologik tushunchalarning asosiy turlari: umumfalsafiy, xususiy sotsiologik, amaliy sotsiologik. Fanning tushuncha-kategoriya apparati rivojlanishining dolzarb muammolari.

**6-mavzu. Sotsiologiya metodologiyalari**

Metodologiya tushunchasi. Sotsiologik nazariya bilimlar sintezi sifatida. Sotsiologiya metodologiyasi shakllanishining evolyutsiyasi. Pozitivistik, psixologik, nepozitivstik, fenomenologiya realistik metodologiyalar. Asosiy, umumiy va maxsus sotsiologik nazariyalar. Sotsiologik nazariyalarning funksiyalari. Qonunlar, kategoriyalar va tushunchalar sotsiologik nazariyaning elementlari sifatida.

**7-mavzu. Sotsiologiya paradigmalari**

Paradigma tushunchasi va mohiyati Fanning paradigmali statusi. Fanning rivojlanishidagi asosiy bosqichlar: meyoriy, anormal, krizis va inqilob bosqichlari. Fanning paradigmali mavqeining mezonlari. Fan paradigmasi va ilmiy nazariya. Sotsiologik paradigma va sotsiologik nazariyalar. Sotsiologik nazariya va metanazariya. Metasotsiologiya. Asosiy sotsiologik paradigmalar: sotsial faktlar; sotsial definitsiyalar; sotsial hatti-harakat; psixologik determinizm; sotsial-tarixiy determinizm paradigmalari.

**8-mavzu. Ijtimoiy qonunlar**

Fanda qonun tushunchasi. Tabiat va jamiyat qonunlari:o'xshashliklar va o'ziga xoslik. Ijtimoiy qonunning sotsiologiyani predmeti sifatidagi umumiy xarakteristikasi. Ijtimoiy mexanizm tushunchasi. Ijtimoiy qonun turlari: dinamik, statistik va boshqalar. Sharq mutafakkirlari qarashlarida ijtimoiy qonun va tendensiyalarning ko'tarilishi. G'arb sotsiologiyasida qonun tushunchasi talqini. Qonun ustuvorligi tushunchasi va uni ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri.

**9-mavzu. Sotsial status va rollar**

Sotsial status to'g'risida tushuncha. Kishining statusimazmuni, mohiyati va uni ijtimoiy hayotda tutgan o'rni. Asosiy va asosiy bo'lmagan (lahzali) statuslar. Statuslarni turlarga ajratish. Sotsial va shaxsiy statuslar o'rtasidagi farqlar. Belgilanadigan va erishiladigan statuslar. Tug'ma status. Aralash status. Insonning statusli qiyofasi: barcha statuslar majmui. Statusli guruhlar, sotsial kategoriyalar. Statuslarni mos kelmasligi. Statuslar iyeraxiyasi. Sotsial meyorlar va sotsial rollar. Rol hatti-harakatning modeli sifatida. Rolli yig'ilma. Sotsial yo'l-yo'riq. Rol va statusning mos kelishi. Statuslararo distansiya.

**10-mavzu. Sotsial harakat va sotsial o'zaro-harakatlar**

Sotsial harakat tushunchasi va mohiyati. Sotsial harakat belgilari. Sotsial harakat strukturasi. M.Veberning sotsial harakat to'g'risidagi qarashlari. Sotsial harakat turlari: maqsadli-ratsional (oqilona), maqsadli-qadriyatli, an'anaviy va affektiv. T.Parsonsning sotsial harakat to'g'risidagi nazariyasi. Sotsial harakatni amalga oshirish mexanizmlari. Sotsial o'zaro harakat tushunchasi va mohiyati. Sotsial o'zaro harakat strukturasi. Sotsial o'zaro harakat turlari.

**11-mavzu. Sotsializatsiya jarayonlari**

Sotsializatsiya tushunchasi. Sotsializatsiya kishilarga ijtimoiy-madaniy meyorlarni singdirish va sotsial rollarni o'zlashtirish mexanizmi sifatida. Sotsializatsiyada universallik va o'ziga xoslik. Sotsializatsiya mexanizm va jarayon sifatida. Sotsializatsiya jarayoni: bosqich va davrlari. Birlamchi va ikkilamchi sotsializatsiya. Sotsializatsiya agentlari va institutlari.



Sotsializatsiya va shaxsning shakllanishi. Sotsial «Men»ni paydo bo'lishi. Ch.Kulining «Ko'zgudagi Men» nazariyasi. «Men» jarayon sifatida. Sotsializatsiyaning tarkibiy qismlari. Tarbiya, ulg'ayish, majburlash, o'rgatish. Desotsializatsiya va resotsializatsiya.

**12-mavzu. Sotsial guruhlar**

Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Sotsial guruh turlari: sinflar, millatlar, demografik birlashmalar, jamoalar va boshqalar. Eys (elita) guruhlar tushunchasi. Sotsiologiyada sotsial guruhlarga ajratish mezonlarining xilma-hilligi: shakllanish usuliga ko'ra, faoliyat sohasiga ko'ra, o'zaro ta'sir turiga ko'ra va boshqalar. G'arb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida. Kvaziguruhlar. Qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat. Ommani sotsiologik o'rganish.

**13-mavzu. Sotsial institutlar**

Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Sotsial institut belgilari. Sotsial institutning asosiy vazifalari. Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni. Oila va nikoh. Iqtisodiy institutlar. Ularning ko'rinishlari va vazifalari. Yashirin va norasmiy iqtisodiyot. O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi.O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Din sotsiomadaniy institut sifatida. Ta'lim sotsial institut sifatida. Uning taraqqiyoti va shakllari. Umumiy, o'rta-maxsus va oliy ta'lim. Oliy ta'lim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagogik kadrlar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va Yevropa hamda AQSH universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta'lim tizimidagi islohotlar: tajriba va istiqbol.

**14-mavzu. Sotsial munosabatlar**

Sotsial munosabatlar tushunchasi, strukturasi, mohiyati. Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, begonalashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, notenglik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Hamfikrlik, barqarorlik va kooperatsiya – sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E.Dyurkgeym konsepsiyasida hamfikrlik tushunchasi. Kooperatsiya ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm sotsiologiyasida barqarorlik va inqirozmuammosi. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash.

Begonalashuv va tanazzul. E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) konsepsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel va sotsiologiyaning boshqa asoschilari ta'limotlarida begonalashuv va jamiyatdagi krizis xodisalariningo'zaro aloqodorligi to'g'risidagi fikrlari. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari. Tenglik va plyuralizm ijtimoiy tuzum taraqqiyotining tamoyillari sifatida. Milliy g'oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni.

**15-mavzu. Jamiyat sotsial tizim sifatida**

Sotsial tizimlar, ularning turlari. Ijtimoiy tashkilot darajalari. Inson cotsial tizimning tarkibiy qismi sifatida. Sotsial tizim dinamikasi va barqarorlik muammolari. Jamiyatning mazmuni, tarkibi va funksiyalari tizimlar sifatida.

«Jamiyat» tushunchasi, uning sifatiy tasniflari: butunlik, ijtimoiylik, barqarorlik, alohidalik va o'ziga yetarlilik, o'zini boshqara olishga qobilligi. Jamiyat strukturasi: ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy. Jamiyat turlari: an'anaviy, industrial, postindustrial.

Jamiyatning zamonaviy tushunchalari: «ochiq jamiyat», «yopiq jamiyat», «informatsion jamiyat», «iste'mol jamiyati», «mo'l-ko'lchilik jamiyati».

**16-mavzu. Jamiyat va iqtisod**

Iqtisodiy munosabatlar: mulkchilik, ishlab chiqarish, ayirbosh, taqsimot, iste'mol. Iqtisodiy munosabatlarva ho'jalik ukladi. Iqtisodning ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligi.

Jamiyatning iqtisodiyva boshqa sohalarining o'zaro munosabatlari. K.Marksning jamiyat mavjudligi va rivojida iqtisodning dominant roli haqidagi g'oyalari. Jamiyat va iqtisod o'zaro munosabatlari haqida G.Spenserning qarashlari.E.Dyurkgeym, M.Veber, T.Parsons nazariyalarida din, huquq, madaniyat, axloq kabi sotsial institutlarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirining tahlili. E.Dyurkgeym mehnatning ijtimoiy taqsimoti haqida.Zamonaviy iqtisod ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va taqsimot jarayonlarini aks ettiradigan ijtimoiy rollar va statuslarning o'ziga xos tizimi sifatida. Transmilliy korporatsiyalarvadunyoning moliyaviy institutlari: global, mintaqaviy va milliy ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar.

**17-mavzu. Jamiyat va davlat**

Davlat va jamiyat tushunchalari. Antik davrda davlatning vujudga kelishi sabablari. Davlatjamiyat boshqaruvining apparati sifatida. Fransuz mutafakkirlari - Sen-Simon, Sh.Monteskye, J.J.Russo va boshqalarning davlat va fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari. Davlat, hokimiyat va siyosiy tuzummunosabatlari. Jamiyatning davlat tuzumi. Fuqarolik jamiyati va davlat munosabatlari. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillari.

**18-mavzu. Jamiyat va siyosat**

Siyosat tushunchasi. Jamiyatning siyosiy tashkiloti. Siyosiy hokimiyat: faoliyat ko'rsatishi shakllari va metodlarining davlat va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. M.Veberning hokimiyat turlari: xarizmatik, totalitar, demokratik haqidagi g'oyalari. Kishilar, ijtimoiy guruhlar, etnik jamoalarning siyosiy ongi va manfaatlari. V.Paretoning elita nazariyasi. Chikago maktabi vakillarining jamiyat va siyosat masalalari o'zaro munosabatlari bo'yicha ishlab chiqqan ta'limotlari. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va jahon siyosatining subyektlari.

**19-mavzu. Jamiyat va madaniyat**

Jamiyat ijtimoiy-madaniy tizim sifatida. M.Veber tomonidan sotsiologiyani madaniyat haqidagi empirik fan sifatida asoslanishi. G.Zimmelning madaniyatning sotsiologik jihatini aks ettiruvchi ta'limoti. Madaniyatning institutsionalizatsiya jarayonlariga ta'siri.Madaniyat va sivilizatsiya. G'arb sivilizatsiyasining halokati haqidagi tanqidiy sotsiologik g'oyalar. Toynbining sivilizatsion taraqqiyotning notekis harakati, an'anaviy, zamonaviy va postzamonaviy sivilizatsiya turlariga ajratish fikrlari. Taraqqiyotning ijtimoiy-madaniy modelini yaratishga urinishlar. Madaniya globalizatsiya va uning oqibatlari.

**20-mavzu. Jamiyat va din**

Din tushunchasi va uning ijtimoiy mazmuni. Din ijtimoiy hayotning eng ko'hna elementi. Kishilik jamiyati tarixida din va diniy e'tiqod ahamiyati. Movarounnaxr mutafakkirlari asarlarida dinni jamiyat hayotidagi o'rni masalalariga bo'lgan munosabatlarning yoritilishi.

Jahon dinlari: xristianlik, islom va buddizm hamda ularning evolyutsisi. Dinning sotsial funksiyalari. Din sotsiologiyasi sotsiologik bilimning muhim tarmoq yo'nalishi sifatida. Din va diniy e'tiqod sotsiologik tahlil obyekti sifatida. Zamonaviy jamiyatda dinning o'rni va uni davlat bilan o'zaro munosabati. O'zbekistonda diniylik va dunyoviylik munosabatlari.

**21-mavzu. Jamiyatning sotsial strukturasi**

Sotsial struktura tushunchasi. Sharq jamiyatida sotsial tabaqalashish muammolari. Platonning asarlarida sotsial struktura masalalarining tahlili. Aristotel tomonidan o'rta sinfning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida asoslanishi. Forobiyning ijtimoiy qarashlarida sotsial struktura muammolarining tadqiq etilishi. A.R.Redkliff-Braun va B.Malinovskiylarning strukturali-funksional yondashuvlari. R.Mertonning strukturali-funksional tahlili.

Sotsial tabaqalanishga sinfiylik tamoyilining qo'llanishi va uning salbiy oqibatlari. Ommaviy qatag'onlar – sinfiy yondoshuvning maxsuli. XX asrning 20-30 yillaridagi sinfiy



tabaqalashuv va uni o'zbek xalqiga keltirgan jiddiy va ayanchli oqibatlari. Sotsial struktura tushunchasining zamonaviy g'oyalari. Jamiyatning sotsial strukturasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. Sotsial-demografik struktura: O'zbekiston jamiyatida holati va mohiyati.

**22-mavzu. Sotsial stratifikatsiya**

Sotsial stratifikatsiya tushunchasi. «Sotsial tengsizlik», «sotsial stratifikatsiya», «strata» tushunchalari aloqadorligi. Sotsial stratifikatsiyaning sotsial tizim bilan o'zaro aloqasi. P.A. Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differensiatsiya. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi sinfiylik ta'limotiga qarshi g'oya sifatida. Zamonaviy O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya masalalari tahlili.

Sotsial stratifikatsiyaning tarixiy turlari: quldorlik, kastalar, tabaqa, sinflar. Sotsial stratifikatsiyaning o'lchanishi: daromad, hokimiyat, ta'lim, prestij. Vertikal va gorizontal stratifikatsiya. P.Sorokin bo'yicha sotsial stratifikatsiyaning turlari: iqtisodiy, siyosiy, kasbiy. Jamiyatning sinfiy tizimi. Marginallik.

«Kambag'allik» tushunchasi. Kambag'allik masshtabi. Kambag'allik darajasi. Absolyut va nisbatan kambag'allik. Qashshoqlik va deprivatsiya. Kambag'allik submadaniyati. O'rta sinf. O'rta sinf tarkibi. O'rta sinfning parametrlari. O'rta sinfning qadriyatlar oriyentatsiyasi. O'rta sinfning harakatchanlik kanallari va to'ldirish manbalari. «Boylik» tushunchasi. Elitalar jamiyati. Hukmron sinf va nomenklatura. Elitaning sirkulyatsiya nazariyasi. R.Millsning «Hukmron elita»si.

**23-mavzu. Sotsial mobillik**

Sotsial mobillik tushunchasi. Sotsial mobillik to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari. Mobillik belgilari. Mobillik turlari: gorizontal va vertikal. Guruhiy va individual mobillik. Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi sotsial mobillik. Strukturaviy sotsial mobillik. Jamiyatda sotsial mobillik yo'llari. Guruhiy berklilik.

Mobillikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya. Mehnat va iqtisodiy migratsiya. Xorijiy ishchi kuchlar bozori. «Aqllar oqimi». Majburiy migratsiya va qochqinlar.

**24-mavzu. Etnosotsiologiya**

Etnosotsiologiya mustaqil fan sifatida. Etnosotsiologiyaning predmeti, strukturasi va asosiy tushunchalari. Etnosotsiologiyaning tadqiqot metodlari. «Ijtimoiy» va «etnik» munosabatlar. Etniklikning asosiy vazifalari va asosiy tadqiqot ko'rinishlari. O'zbekistonda etnosotsiologik bilimlarni vujudga kelishi.

Millat madaniy-psixologik jamoa sifatida. «Etnos» va «millat» tushunchalarining o'zaro bog'liqligi. Zamonaviy dunyoda etnik omilning o'rni. Etniklik nazariyasi va konsepsiyasi. Fuqarolik muammosi. Etnik aralashuvchanlik. Zamonaviy dunyoda etnik munosabatlar. Etnik va siyosiy jarayonlarning o'zaro munosabati.

Milliy-etnik jamoalarning tarixiy va zamonaviy nazariyalari. XX asrdagi millatlarni o'rganuvchi maktab va yo'nalishlar. XX asrdagi milliy jamoalar va etnoslar konsepsiyasi. Funksionalizm. Amerika maktabi. Etnopsixologik maktab. Klod Levi-Strosning strukturalizm nazariyasi. Lesli Elvin Uaytning neoevolyutsionalizm nazariyasi. L.Gumilyovning etnogenez konsepsiyasi.

**25-mavzu. Sotsial konfliktlar**

Sotsial konflikt tushunchasi. Sotsial konfliktlarning ro'y berish bosqichlari. Sotsial konfliktlarning funksiyasi va subyektlari. Konflikt turlari: shaxslararo konflikt, shaxslar ichida konflikt, shaxs va guruh o'rtasida konflikt, guruhlararo konflikt, davlatlararo konflikt,

millatlararo konflikt. Konflikt sabablari. Sotsial konflikt dinamikasi. Konfliktli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyasi: moslashish, kompromiss, hamkorlik, inkor etish, munozarali. Konfliktni hal etish: uning mohiyatini hisobga olib, maqsadini inobatga olib, jarayonning dinamikasini rivojlanishini hisobga olib.

**26-mavzu. Ekologiya sotsiologiyasi**

Ekologiya sotsiologiyasi tushunchasi. Uning shakllanish davrlari. Ekologik vaziyat tushunchasi. Sanoatlashgan va agrar hududlardagi ekologik vaziyat: umumiylik va xususiylik. Atrof muhit holati: dunyoda, mintaqada, mamlakatda, viloyatda, shahar, tuman va qishloqda. Nohush ekologik hududlar va ulardagi holatni yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy omillari. Ekologik madaniyat va unin asosiy elementlari. Ekologik ong tushunchasi. Ekologik ong saviyasi uni rivojlantirish tendensiyasi. Barqaror ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasi, uning asosiy tamoyillari va unda ekologik ong ahamiyati. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrida ekologik ongning roli. Ekologik ijtimoiy harakatlar. «EKOSAN» tashkiloti va uni O'zbekistondagi ekologik vaziyatni yaxshilashdagi roli. Ekologiya sotsiologiyaningasosiy konsepsiyasi. Zamonaviy davrning dolzarb ekologik muammolari va ularni amaliy jihatlarda tadqiq qilishda sotsiologiyaning o'rni.

**27-mavzu. Sotsial kommunikatsiya**

Sotsial kommunikatsiya tushunchasi. Sotsial kommunikatsiya jarayoniga berilgan asosiy ta'riflar va modellar. Sotsial kommunikatsiya - ma'lumotlarni uzatish, sotsial tizim elementlarni o'zaro bog'lovchi jarayon sifatida. Sotsial kommunikatsiyaning turlari. Jamoatchilik fikri va sotsial stereotiplar ommaviy kommunikatsiya natijalari sifatida. Informatsion to'siqlar. Mish-mishlar norasmiy kommunikatsii maxsuli. Zamonaviy jamiyat hayotida sotsial kommunikatsiya o'rni va ahamiyati

**28-mavzu. Sotsial o'zgarishlar va taraqqiyot**

Sotsial o'zgarish: tushuncha va shakllari. Sotsial o'zgarishlar strukturasi va mexanizmlari. O'zgarish, rivojlanish, progress, regress.

Sotsial o'zgarishlar to'g'risidagi nazariyalar, sotsial o'zgarishlarga olib boruvchi omillar. Jamiyatning evolyutsion rivoji. Sotsial inqiloblar va ularning salbiy oqibatlari. Zamonaviy sotsiologiyada sotsial o'zgarishlar nazariyalari. Sotsial o'zgarish va sotsial barqarorlik. Sotsial keskinlik. Yangi sharoitlarda sotsialtransformatsiya: yo'nalishilari, omillari, sotsial oqibatlari. Globalizatsiya va o'zgarayotgan dunyo. Global rivojlanish. Dunyo tizimlarini shakllanishi. Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning tutgan o'rni.

**29-mavzu. Sotsial infrastruktura**

Sotsial infrastruktura tushunchasi. Sotsial infrastruktura ijtimoiy taraqqiyot omili. Amerikalik iqtisodchi P.Rozenshteyn-Rodan sotsial infrastruktura tushunchasi muallifi. XX asrning 40-yillarida fanga sotsial infrastruktura tushunchasining joriy etilishi. Sotsial infrastruktura iqtisodiy va ijtimoiy hayot sharoitlarini o'rganish omili. Sotsial infrstrukturaning moddiy-buyum muhiti va shaxs, guruh, sinf, jamiyat munosabatlari hamda aloqalarini namoyon qilishi. Sotsial infrstruktura sotsial subyekt asosiy faoliyatini (mehnat, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, oilaviy-ma'ishiy) ratsional tashkil qilish mexanizmi sifatida. Sotsial infrastrukturaning asosiy obyektlari.

Sotsial infrastrukturaning shakllari: chiziqli (temir yo'l, avtotrassa, aloqa seti, jlektr uzatish liniyalari va h.z). Aniq (maktablar, teatrlar, oliy o'quv yurtlari va h.z.). Sotsial infrastrukturaning milliy xususiyati. Murakkab iqlimli hududlarning sotsial infrastrukturasi. Sotsial infrastruktura rivojining tendensiyasi.

**30-Mavzu. Zamonaviy sotsiologiya va uning taraqqiyoti istiqbollari**

Global jahon hamjamiyati zamonaviy sotsiologiyaning obyekti sifatida. Yangi sotsiologik ta'limotlar. XXI asrdagi sotsiologik paradigmalar. Sotsiologiyada modern va postmodernizm



nazariyalari. O'zbekistonda sotsiologiya: sotsial jarayonlarni globallashuvi sharoitida rivojlanish muammolari. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan empirik va amaliy sotsiologik tadqiqotlarda foydalanish. Yangi sotsial texnologiyalar va sotsiomadaniy tadqiqotlar. Axborot jamiyati sharoitida sotsial bashorat va loyihalashtirish.

## III. Seminar mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishi va taraqqiyotini asosiy bosqichlari
2. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti.
3. Sotsiologiya strukturasi.
4. Sotsiologiya fanlar tizimida.
5. Asosiy sotsiologik tushunchalar
6. Sotsiologiya metodologiyalari
7. Sotsiologiya paradigmalari
8. Ijtimoiy qonunlar
9. Sotsial status va rollar
10. Sotsial harakat va sotsial o'zaro-harakatlar
11. Sotsializatsiya jarayonlari
12. Sotsial guruhlar
13. Sotsial institutlar
14. Sotsial munosabatlar
15. Jamiyat sotsial tizim sifatida
16. Jamiyatning sotsial strukturasi. Sotsial stratifikatsiya. Sotsial mobillik
17. Etnosotsiologiya
18. Sotsial konfliktlar
19. Ekologiya sotsiologiyasi
20. Sotsial kommunikatsiya
21. Sotsial o'zgarishlar va taraqqiyot. Sotsial infrastruktura
22. Zamonaviy sotsiologiya va uning taraqqiyoti istiqbollari

*Seminar mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.*

## IV. Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi)

